

**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ МУАССАСALARIDA
SURDOPEDAGOGIK YONDASHUVLAR**

Amangeldiev Alpamis Baxtiyarovich

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada eshtishida nuqsoni bo'lgan bolalar va ularning turli xil xususiyatlari, surdopedagogikaga oid tadqiqotlar va olimlarning fikrlari, maktabgacha ta'lismuassalarida ta'lismolishi, tug'ma va keyiniroq eshitishi sustlashgan bolalarning farqlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lismuass, surdopedagog, rezus-faktor, metod, syujetli-ro'lli o'yinlar, maktabgacha ta'lismuass, korrektsiyalash.

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ ГЛУХИХ В ДОШКОЛЬНЫХ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Аннотация. В данной статье представлены сведения о слабослышащих детях и их различных особенностях, исследованиях и мнениях ученых по вопросам педагогики глухих, обучения в дошкольных образовательных учреждениях, различиях между врожденными и поздними слабослышащими детьми.

Ключевые слова. Образование, педагог глухих, резус-фактор, метод, ролевые игры, дошкольное образование, коррекция.

**DEAF PEDAGOGICAL APPROACHES IN PRESCHOOL
EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

Abstract. This article provides information on hearing impaired children and their various characteristics, deaf pedagogy, education of hearing impaired children in preschool institutions, research and opinions of scientists, differences between congenital and later hearing impaired children.

Key words. Education, deaf pedagogue, rhesus factor, method, role-playing games, pre-school education, correction.

Kirish. Hozirgi rivojlangan davrimizda inson faktori va atrof-muhitning o'z aro bog'liqlik masalasi va uning tadqiq etilishi fanlar aro barcha sohalarni birlashtirmoqda. Bu kabi tadqiqotlarning asosiy xususiyati - insonlar va jamiyat o'rtasidagi bog'liqliklarga taa'luqlidir. Jamiyatta insonlarning bir-biri bilan a'loqa qilishi, suhbatlashishi haqida so'z bo'lganda bazi insonlarda harxil nuqsonlar bor ekenligini unutmaslik joiz. Bu kabi xususiyatlardan biri insonlardagi eshitish tizimida qandaydur

nuqsonlarning borligi. Xususan, tug'ma yoki hayoti davomida orttirilgan ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Bu kabi xususiyatga e'ga insonlarni o'qitish haqidagi fan – surdopedagogika deb nomlanadi.

Surdopedagogika asosan, otolaringologiya, akustika, logopediya, umumiy pedagogika, tilshunoslik, psixologiya, fiziologiya bilan uzviy bog'liq.

Adabiyotlar tahlili. Surdopedagogika sohasining rivojlanishida bir qator tadqiqtochilarning ilmiy izlanishlari asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bu soha hozirgi kunda ahamiyatli muammolarga yechim bo'lishi bilan diqqatga sazovor. Chunki, insonlarning harqanday nuqsoniga qaramasdan, jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'la olishi inson uchun undagi kamchiliklarni inobatga olgan holda o'qitishni yo'lga qo'yish zamonamizning dolzarb masalalaridan. N.I.Belova [1], B.D.Korsunkaya [5], L.P.Noskova [8], L.S.Vigotskoy [2], A.G.Gozova [4] singari tadqiqotchilar bu muammoga oid o'z fikr mulohazalarini bildirgan va bu hozirgi surdopedagogikaning rivojlanishida va amalda natijalarga e'rishilishida alohida ahamiyat kasb etadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish jarayonida sotsial aktivlashishi va tsivilizatsiyaga moslashishida katta tayyorgarlik zarur. Ularning psixik rivojlanishi, shaxs madaniyatining shakllanishida ya'ni narsalar, sotsial hodisalar, tabiat hodisalari, umumiy insoniy va milliy qadiriyatlarni bilip tushinib olishlarini taminlash zarur. [2]

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu mavzuni yoritish jarayonida sinxron tahlil, klassifikatsiya va distributiv metodlardan foydalananilgan.

Tahlil va natijalar. Katta jamiyatga qadam bosishning eng birinchi bosqichi maktabgacha ta'lim ya'ni bolalar boqchalari hisoblanadi. Bolalar bu davrda mакtab uchun tajriba to'playdi va talim olishga tayyorlanishadi. Bolalar bu vaqt muaboynda kattalarning gaplariga qulq soladi va ular «bo'lmaydi» deya ta'kidlagan harakatlarini yo'qotishga urunishadi. Har tamonlama sog' bolalarning orasida eshtishida nuqsoni bor bolalar ham bu vaziyatlarda ishtirok etishadi. Ammo, ularda holat biroz boshqacharoq bo'lishi mumkin. Chunki, bolalar o'zlarida qanaqadur kamchilikning bor e'kanligini anglaydi va o'zidan qanoatlanmaganligi sababli turli xil injiqliklarni keltirib chiqarishi yoki xulq-atvorida ham o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu kabi vaziyatlarda tarbiyachi pedagog o'zining tajribasi va bilimliligi bilan bu holatdan bolani olib chiqib ketish imkoniyatiga e'ga. Bu kabi zaifligi bor bolalar turlicha bo'ladi. Masalan, gapira oladigan asta-asta eshitish qobiliyati susaygan bolalarda ham fonetik va grammatik kamchiliklar uchrashadi. Ko'п hollarda eshitishi susaygan bolalar ózini butunlay eshitmaydigandek sezishadi. Esitishi pasaygan bolalarning ota-onalari uchun farzandining boqchaga borgan davri juda mashaqatli va javobgarchilikni talab qiladigan davr. Chunki ular injiq bo'lib qolish bilan bir qatorda atrofidagilar bilan aloqa qilishdan bosh tortishadi. Bu kabi holatlarning barchasi pedagogdan va ota-onadan birgalikda bolaning kelajagi uchun harakat qilishni va sabrlilikni talab qiladi.

Eshitish qobiliyatining susayishi tug'ma va dastlabki yoshlarda pasayishi *vestibulyar apparatning aynishi, gavdani tik tuta olmaslik, otirish, turishning kechikib rivojlanishi* singari fiziologik orqada qolishlarni ham keltirib chiqaradi.

Bazi bolalarning gapirish xususiyati saqlangan bo'ladi, boshqalarining gapirishida grammatik kamchiliklar kuzatiladi. Ularga gapirish uchun labdan o'qishga o'rgatiladi. 5-7 yoshida eshitishi susaygan bolalarni labdan oqishga o'rgatish osensor bo'ladi. Odatda, eshitmaydigan bolalarning gapirishi asta-sekinlik bilan susayib boradi. Eshitishi mutloq pasaygandan so'ng ularda aktiv g'uldirash, noto'g'ri aytildigan so'zlar, grammatik jihatdan hato so'z va gaplarni ishlatish va tushunarsiz gapirish holatlari uchrashadi.

Ammo bu kabi bolalarning o'yinlarida, hohishlarida keskin farqlar kam. Intellektual rivojlanish normasida bolgan bolalalar bilan sust eshituvchi bolalarning o'yinchoqlarga qiziqishlari mutonosib. Ularda 4 yoshdan oshgan bolalarning o'yinlarida syujetlarga asoslanib o'ynash kuzatiladi. Esitish qobiliyati sustlashgan ammo fonetik, grammatik nuqsonlariga qaramasdan gapira oladigan bolalarda ham maktabgacha davrda syujetli-rolli o'yinlar o'ynashi kuzatiladi. Ular katta bo'lgani sari insonlar bilan tez muloqatga kirishadigan va o'zini jamiyatdan olib qochmaydigan bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkillashtiriladigan ta'lim bolalarni har jihatdan tarbiyalashga va maktab talimiga tayyorgarlik ko'rishiga qaratiladi. Tálim jarayonida pedagoglar bolalarning bilish faoliyatini aniqlaydi va yo'naltiradi, bolalar e'sa intellektual, nutqiy faoliyat turlari va usullarini o'zlashtiradilar. Sust eshituvchi bolalarning tálim-tárbiya mazmuni va ta'lim programmalarida maktabgacha ta'lim pedagoglariga quyidagi vazifalar belgilab beriladi:

1. Bolaning umumiy rivojlanishini boyitish;
2. Rivojlanishidagi bor bo'lgan nuqsonlarni korrektsiyalash;
3. Maktab talimiga tayyorlash.

Bu vazifalardan kelib chiqib, bolalarning sotsial rivojlanishi, bilish faoliyatining ortishi taminlanadi. Bolalarning nuqsonli taraflari inobatga olingan holda mashqlar tashkillashtiriladi. Mashqlar ertalab va kechqurun surdopedagog va tarbiyachi boshchiligidagi o'tkaziladi.

Surdopedagog o'z tajribalari asosida bolalarda gapirishni yaxshilovchi mashqlarni shuningdek, eshitishni saqlab qolish yoki eshitish qobiliyatini saqlab qoluvchi mashqlar bilan shug'llantirishi lozim.

L.S.Vigotskiyning aytishicha, erta paydo bo'lgan karlik yoki qulog'i og'irlik gapirishning rivojlanishiga albatta, salbiy tasir ko'rsatadi. Gapirishning rivojlanishidagi izdan chiqishlar a'loqaning buzilishiga, bilish faoliyatining sustlashishiga olib keladi. Natijada, korreksion-tarbiyaviy ishlarni ikkilamchi buzilishlarni ya'ni, nutqiy kamchiliklarni yo'qotishga qaratilgan bo'ladi. [2]

Umumiy rivojlantiruvchi va korreksion vazifalarni mutonosiblikda amalga oshirish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning to'liq rivojlanishini ta'minlab, maktab talimiga tayyorlanishiga yordam beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda surdopedagogika didaktikasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi: *ta'lim tarbiyaning ilimiyligi va ketma-ketligi, aniqligi, ko'rgazmaliligi, bilim olishda aktivlik va erkinlik, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ta'limning hayot bilan bog'liqligi.* Bu tamoyillarning barchasi bolada ta'lim olishga qiziqishning ortishiga, tahlil qilish, sintezlash, o'ylash jarayoning yaxshilanishiga, mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi. Harbir tamoyilning o'ziga xos o'rni bor.

Shuningdek, umumiy dikaktik tamoyillardan tashqari, maktabgacha yoshtagi bolalalrning o'ziga xos xususiyatlarini, korrektsion ta'limning mazmunini hisobga olgan holda quyidagi printsiplarni ham atab o'tish joiz.

1. Genetik printsip.
2. Nutqiy a'loqani rivojlantirish printsipi.
3. Ta'limning rivojlantirish xarakteriga e'galigi.
4. Ta'lim-tarbiyaning korrektsion yo'naltirilganligi.
5. Ta'limni turli xil xizmatlar muaboynda amalga oshirish printsipi.
6. Kamchilikning tuzilishi va og'irlik darajasini hisobga olish printsipi.
7. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish printsipi.

Bu tamoyillar natijasida bolalardagi nuqsonlarning sezilarli darajada yo'qolishiga erishiladi.

Xulosa. Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va tashkillashtirish formalarini tanlashda bolalaring holatidan kelib chiqgan holda eng yaxshi metodlardan foydalanimoqda. Maktabgacha ta'limda ham maktab yoshidagi bolalarning ta'lim olishida ham yuqoridagi kabi tamoyillar alohida ahamiyat kasb etadi. Kar va zaif eshituvchi bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlab bartaraf etilishi va o'rni to'ldirilishi, ularning matabda o'qishga tayyorlik darajasini oshirishga yordam beradi. Chunonchi, bolalar o'z kamchiliklaridan uyalsasin va bu nuqsonlar ularning jamiyatning ko'zga ko'ringan vakili bo'lishiga to'sqinlik qilmasin. Keyingi tadqiqotlarimiz davomida barcha tamoyillarning natijasi va samaradorligini alohida tahlil qilish lozim. Chunki zaifligi bor maktabgacha yoshdagi bolalarning jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lib shakllanishida har taraflama yetuk tarbiyalanishida bu tamoyillar katta ahamiyatga e'ga.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Белова Н.И. Специальная дошкольная сурдопедагогика. –Москва, 1985; Овладение речевыми умениями детьми в специальных децких садах. В сб. особенности овладения знаниями и умениями детьми с недостатками слуха.

- Л. 1982.
2. Вигоцкий Л.С. Вопросы детской (возрастной) психологии. Собр.соч. в :т. М. 1982 Т.4
 3. Вигодская Г.Л. Обучение глухих дошкольников сюжетно-ролевым играм. -М. 1975.
 4. Гозова А.П. Психология трудового обучения глухих. -М. 1979.
 5. Корсунская Б.Д. Обучение речи глухих дошкольников. -М. 1960.
 6. Ў.Отавалиева. Бола тарбиясида боқча ва оила ҳамкорлиги. - Т.1994.
 7. Мактабгача тарбия ёшидаги кар болаларга таълим тарбия бериш дастури. – Тошкен, 2000.
 8. Носкова Л.П. Преемственность в работе дошкольного отделения и специальной школы по формированию речи глухих детей. В сб. особенности развития и воспитания детей дошкольного возраста с недостатками слуха и интеллекта. – Москва. 1984.
 9. Программы для специальных дошкольных учреждений. Воспитание и обучение глухих дошкольников. -М. 2000.